

Alisher  
Navoiy

Buyuk astronom olim

Abu Ali  
ibn  
Sino

Sohibqiron

Mirzo  
Ulug'be  
k

Buyuk tabib

### **3. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarini baholash.**

O‘rganilganlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi:

1. Hikoya sizga yoqdimi?
2. Asardan Amir Temur va Mirzo Ulug‘bekning suhbatini o‘qing.
3. Mirzo Ulug‘bek haqida aytilgan gaplarni topib ayting.
4. Hikoya qahramoniga ta’rif bering.

Barcha o‘quvchilar ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

 **Uyga vazifa:** Hikoyani o‘qish. Mazmunini so‘zlashga tayyorlanish.

### **14-mavzu: “Mening bolaligim” hikoyasi (Said Ahmad)**

#### **Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarni Said Ahmadning “Va’da” hikoyasi bilan tanishtirish, ifodali o‘qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish;

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilar qalbida buyuk ajdodlarimizga bo‘lgan muhabbatni oshirish; hikoyada aks etgan go‘zallik va ezbilikdan o‘rnak olishga intilish hissini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi, hozirjavoblik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars metodi:** savol-javob, interaktiv o'yinlar

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, multimedia ilovalari

**Darsning blok chizmasi:**

**1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):**

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-O'tilganlarni takrorlash : "**Diqqat**" mashqi

Mashq shartiga ko'ra o'qituvchi o'tilgan mavzular yuzasidan savol beradi.

O'quvchilar savollarga diqqatlarini jamlagan holda javob berishlari kerak bo'ladi:

1. Asarni o'qish jarayonida ko'z oldingizda qanday holat gavdalandi?

2. Donishmand qayerlik edi?

3. Ayting-chi, donishmandning qanday odati bor ekan?

4. "Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va'da qilasiz?" jumlasini qanday

tushundingiz?

**"Adabiy muzey"** o'yini. O'qituvchi "muzey" zallari bo'ylab xayolan sayohat uyuştiradi. Har bir zal asarning janriga mos nomlanadi. Masalan: "Hozir biz siz bilan muzeyning "Buyuk ajdodlarimiz zali"ga tashrif buyuramiz. Bu zalda sehrli buyumlar bor. O'ylab ko'ring-chi, ular kimga tegishli" kabi.



**2.Asosiy qism(yangi mavzu bayoni va mustahkamlash):**

Bugungi dars mavzusi – Said Ahmadning "Mening bolaligim" hikoyasi.

Said Ahmad haqida qisqacha ma'lumot beriladi:



1920-yilning 10-iyunida █ shahrining Samarqand darvoza mahallasida tug'ilgan. Uning bolaligi █ singari adiblar davrasida o'tgan. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko'p sohalarda o'zini sinab ko'rgan: plakatlar yozgan, artist bo'lishga urinib ko'rgan, doktorlik mакtabida o'qigan, qurilish texnikumida tahsil olgan, rassomlik maktabiga qatnagan, mashhur fotochi [Pensonga](#) shogird tushgan, gazetalarga xabarlar yozgan. Adib "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga, Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan, "Buyuk xizmatlari uchun", "Do'stlik" ordenlari bilan taqdirlangan.

O'qituvchi hikoyani ifodali o'qib beradi. Mazmuni tushuntiradi. Keyin o'quvchilar matnni ketma-ket o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradi.

Hikoyadagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

### Darslik bilan ishlash.

O'quvchilar hikoyani ichda o'qib chiqadi va savollarga javob berishadi:

1. Hikoya kimning tilidan aytilgan?
2. Qahramon yoshligidan nimalarga qiziqqan ekan?
3. Asardagi 1-gapni o'qing. Muallif necha yoshdaligini nazarda tutgan deb o'ylaysiz?
4. Said Ahmad o'zini qaysi sohalarda sinab ko'rgan?

### Mashq daftari bilan ishlash.

**1-topshiriqni** o'quvchilar mustaqil bajaradi.

**2-topshiriq.** Berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'riliqini aniqlang. To'g'ri gaplarning oldiga , noto'g'ri gaplarning oldiga  belgisini qo'ying.

- Sizning yoshingizda men juda ko'p uxlardim.
- Samarqand darvoza guzari shundoqqina uyimizdan ko'rinish turardi.
- Yozi bilan to'rt-besh marta dorbozlar kelishmasdi.
- Darsdan keyin to qorong'i tushguncha shior yozardim.
- Rassomlik bilan fotochilik bahona bo'ldi-yu, matbuotga yaqinlashdim.
- Hamon o'sha paytda olgan qalamimni qo'lidan qo'ydim.

**3-topshiriq.** “Mening bolaligim” hikoyasi matnidan foydalanib bo’sh o’rnlarni to’ldiring.

Hamon o’sha paytda olgan \_\_\_\_\_ qo’ldan qo’ymadim. Ko’plab \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, kinossenariylar yozdim. Nimaiki orzu qilgan bo’lsam, \_\_\_\_\_ erishdim. Mabodo taqdir meni o’sha \_\_\_\_\_ qaytarsa, baribir yana xuddi shu ishimni davom ettirardim. Chunki \_\_\_\_\_ qon-qonimga singib ketgan. O’z kasbimni jon-jonimdan yaxshi ko’raman.

**4-topshiriq.** “Sinkveyn” metodi.



O’quvchilarning javoblari to’ldirilib, umumlashtiriladi, tarbiyaviy xulosa chiqariladi. Hikoya mazmuni o’quvchilar tomonidan qayta hikoya qilinadi.

### **3. Darsga yakun yasash va o’quvchilarni baholash:**

Darsda o’rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o’tkaziladi:

1. Sizning qanday orzularингiz bor?
2. Orzularингiz ro’yobga chiqishi uchun qanday yo’l tutish kerak deb hisoblaysiz?

Barcha o’quvchilar ishtirokiga ko’ra baholanadi. Darsda faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

 **Uyga vazifa:** Hikoyani o’qish va qayta hikoyalashga tayyorlanish.